

RABINDRANAT TAGORNING “SHUBXA” HIKOYASIDA INSON RUHIYATI VA RAMZIY OBRAZLAR DINAMIKASI

Mavjudboyeva Mardona Muzaffar qizi,
Namangan davlat universiteti
Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi
Email: mavjudboyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18981800>

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon adabiyotining yirik namoyandasi Rabindranat Tagorning “Shubxa” hikoyasi badiiy va ruhiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot markazida asar bosh qahramoni – soqov qiz Shubxaning obrazlar tasnifidagi o‘rni, uning ruhiy iztiroblari va jamiyat bilan muloqotsizligi masalasi turadi. Maqolada muallifning badiiy mahorati, personaj yaratishdagi individual uslubi va verbal bo‘lmagan muloqot vositalarining badiiy vazifasi ochib berilgan. Tadqiqot natijalari filologik tahlil orqali asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Obrazlar tizimi, psixologizm, Shubxa, Rabindranat Tagor, muloqot, sukunat, badiiy mahorat, hind adabiyotining o‘ziga xosligi, personaj dinamikasi, lirik qahramon, ijtimoiy muhit.

Annotation. This article provides an artistic and psychological analysis of the short story "Subha" by Rabindranath Tagore, a prominent figure in world literature. The research focuses on the protagonist – a mute girl named Subha – examining her role in character classification, her psychological struggles, and the issue of her isolation from society. The article highlights the author's artistic craftsmanship, his individual style in character development, and the artistic function of non-verbal communication tools. The findings of the research are supported through philological analysis.

Keywords: System of characters, psychologism, Subha, Rabindranath Tagore, communication, silence, artistic craftsmanship, uniqueness of Indian literature, character dynamics, lyrical hero, social environment.

Аннотация. В данной статье представлен художественный и психологический анализ рассказа «Шубха» выдающегося представителя мировой литературы Рабиндраната Тагора. В центре исследования находится образ главной героини – немой девушки Шубхи, её место в классификации персонажей, её душевные страдания и проблема отсутствия коммуникации с обществом. В статье раскрываются художественное мастерство автора, индивидуальный стиль создания персонажа и художественная функция средств невербального общения. Результаты исследования обоснованы посредством филологического анализа.

Ключевые слова: Система образов, психологизм, Шубха, Рабиндранат Тагор, общение, тишина (молчание), художественное мастерство, своеобразие индийской литературы, динамика персонажа, лирический герой, социальная среда.

Kirish

Rabindranat Tagor jahon adabiyoti hazinasiga inson ruhiyatining eng nozik qirralarini ochib beruvchi asarlar taqdim etgan. Uning “Shubxa” hikoyasi inson qadri va ijtimoiy chetlanish muammolarini ko‘targan asardir. Asarning bosh qahramoni Shubxashini (qisqacha Shubxa) soqov bo‘lishiga qaramay, uning ichki dunyosi so‘zlar bilan ifodalab bo‘lmaydigan darajada boy.

Ushbu tadqiqotning dolzarbli shundaki, zamonaviy adabiyotshunoslikda jismoniy nuqsoni bor qahramonlarning badiiy asardagi psixologik portretini o‘rganish inson omilini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning maqsadi – hikoyadagi obrazlar ierarxiasini⁷⁵ aniqlash va Shubxa obrazining asar g‘oyaviy markazidagi o‘rmini belgilashdan iborat.

Tadqiqot metodikasi

Maqola yozishda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- 1) Qiyosiy-tahliliy metod: obrazlarning o‘zaro munosabatlari va ularning jamiyatdagi mavqeyi adabiy manbalar asosida tahlil qilindi;
- 2) Psixologik tahlil metodi: qahramonning nutqsiz holatdagi ruhiy kechinmalarini aniqlash uchun foydalanildi;
- 3) Strukturaviy tahlil: asarning syujet chiziqlari va obrazlar tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi.

Natijalar

Rabindranat Tagorning “Shubxa” hikoyasi ustida olib borilgan filologik tadqiqotlar natijasida asardagi obrazlar tizimi va ularning badiiy vazifalari yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi: Shubxa obrazi⁷⁶ – sukunatning psixologik determinanti sifatida tasvirlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, muallif bosh qahramonning jismoniy nuqsonini uning ma’naviy ustunligiga aylantirgan. Qahramonga berilgan “Shubxashini” (shirin zamon) ismi va uning soqovligi o‘rtasidagi ziddiyat qahramonning ijtimoiy fojiasini ochib beruvchi asosiy badiiy vositadir. Shubxaning so‘zlay olmasligi uning nigohlariga cheksiz ma’no yuklaydi. Adabiyotshunos olim D. Quronov ta’kidlaganidek: “Badiiy asarda sukut – eng baland ovozdur”.⁷⁷ Shubxaning ko‘zlari nafaqat ichki kechinmalarini, balki atrof-muhitdagi adolatsizlikka nisbatan so‘zsiz isyonini ham ifodalaydi. Shubxa obrazi orqali Tagor “so‘zsiz muloqot” fenomenini yaratgan. Uning dardi nutqiy shaklga ega emas, balki “ruhiy tebranishlar” orqali kitobxonga yetkaziladi.

Tadqiqot davomida asardagi personajlar o‘zlarining funksional vazifalariga ko‘ra quyidagicha klassifikatsiya qilindi:

1. Markaziy protagonist⁷⁸ (Shubxa): Barcha voqealar va emotsional yuk uning atrofida birlashadi. U tabiat va insoniyat o‘rtasidagi “bog‘lovchi halqa” vazifasini o‘taydi.

2. Statik antagonistlar (Jamiyat va Onaning bir qismi): Onasi qizini o‘zining “peshonasidagi dog” deb hisoblaydi. Bu orqali Tagor jamiyatning nuqsonli insonlarga bo‘lgan shafqatsiz va xurofiy munosabatini fosh etadi.

3. Lirik rezonator (Pratap): Pratap Shubxa uchun yagona muloqot maydoni. U qizning “eshituvchisi” bo‘lib, ular o‘rtasidagi munosabat so‘zga asoslanmagan sadoqatdir.

4. Emotsional tayanch (Banikantxa): Otasi obrazida qiziga bo‘lgan cheksiz mehr va shu bilan birga jamiyat qonunlari oldidagi ojizlik aks etadi.

Tagor “Shubxa” hikoyasida inson nutqi ojiz qolgan joyda tabiat nutqini ishga soladi. Shubxa uchun tabiat shunchaki manzara emas, balki uning dard-u hasratini tinglaydigan, u bilan bir tilda gaplashadigan tirik mavjudotdir. Shubxa yashaydigan qishloq chetidagi kichik daryo uning eng yaqin sirdoshidir. Daryo tinmay shovqin soladi, pichirlaydi, harakatlanadi. Shubxa soqov bo‘lgani uchun daryoning bu tinmas ovozi uning ichidagi aytilmagan so‘zlari o‘rnini bosadi. Daryoning to‘lqinlanishi – qizning hayajoni; daryoning sokinligi – qizning mahzunligi. Tagor qizning nutqiy nuqsonini daryoning “vafodor shovqini” bilan to‘ldiradi. Shu bilan birga, Shubxaning odamlar orasida do‘sti yo‘q, lekin uning molxonada ikki sirdoshi – Sarbashi va Panguli ismli sigirlari bor. Bu hayvonlar Shubxaning nafas olishidan, qadam tovushidan uning kayfiyatini sezishadi. Insonlar Shubxaga “nuqsonli” deb qarasa, sigirlar unga “baxtsiz do‘st” deb qarashadi. Shubxa ularning bo‘ynidan quchoqlab yig‘laganda, ular qizning dardini his qilishadi. Bu – so‘z kerak bo‘lmagan, faqat hissiyot va empatiyaga⁷⁹ asoslangan eng oliy muloqotdir.⁸⁰

Shubxa daryo bo‘yidagi tollar ostida o‘tirganda, u o‘zini yolg‘iz his qilmaydi. U yerda qushlarning sayrashi, barglarning shitirlashi va suvning urilishi uning uchun umumiy bir tilga aylanadi. Tagor tabiatni Shubxaga nisbatan “Ona” obrazida tasvirlaydi. Insoniy ona qizidan uyalsa, tabiat uni boricha qabul qiladi va bag‘riga bosadi. Natijalar shuni tasdiqladiki, Shubxaning fojiasi uning soqovligida emas, balki u yashayotgan jamiyatning ma’naviy “ko‘rliigi” dadir. Qizning majburiy turmushga uzatilishi va uning haqiqiy holati yashirilishi – o‘sha davrdagi ayol huquqlari va ijtimoiy qoliqlarning qurboni ekanligini ko‘rsatadi. Shubxa o‘z uyida, o‘z qishlog‘ida begonaga aylangan. Bu begonalashuv uning tabiatga “qochishi”ga sabab bo‘ladi.

Muhokama

Rabindranat Tagor ushbu hikoyada inson nutqi ojiz qolgan nuqtada tabiat nutqini badiiy muloqot quroliga aylantiradi. Shubxa obrazi orqali adib insoniy aloqalarning nafaqat og‘zaki, balki ruhiy va tabiiy qatlamlarini ham ochib beradi. Jamiyat Shubxaning soqovligini nuqson deb bilsa, muallif buni uning ma’naviy pokligi sifatida taqdim etadi. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, Shubxa uchun so‘z tushunmovchiliklar manbai, sukunat esa mutlaq haqiqatdir. Shu bilan birga, Shubxa uchun tabiat shunchaki manzara emas, balki uning dard-u hasratini tinglaydigan tirik mavjudotdir. Daryo shovqini va qushlar sayrashi Shubxa uchun insonlar bera olmagan ruhiy tasallini beradi.

⁷⁶ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Obraz>

⁷⁷ Dilmurod Quronov “Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari”. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 142.

⁷⁸ <https://opentran.net/uz/ingliz-ozbek-tarjima/protagonist.html>

⁷⁹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Foydalanuvchi:Samandar_Xodjaev/Empatiya

⁸⁰ Rabindranat Tagor “Shubxa”. – Toshkent – 2024. – B. 6.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Badiiy psixologizm mahorati nuqtayi nazaridan Tagor Shubxaning ko‘zlarini cheksiz osmon kabi beg‘ubor deb tasvirlash orqali, qahramonning aytilmagan so‘zlarini uning nigohlari orqali kitobxonga yetkazadi. Bu esa o‘quvchida qahramonga nisbatan chuqur emotsional bog‘liqlikni uyg‘otadi. Inson nutqi cheklangan joyda tabiatning keng ko‘lamli nutqi Shubxa uchun dunyo bilan bog‘lanishning yagona haqiqiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi.⁸¹

Xulosa

Rabindranat Tagorning “Shubxa” hikoyasidagi obrazlar tizimini o‘rganish natijasida Shubxa obrazi asarning g‘oyaviy markazi bo‘lib, qolgan barcha personajlar uning ruhiy dunyosini turli rakurslardan yoritishga xizmat qilishi aniqlandi. Tabiat asarda shunchaki fon emas, balki bosh qahramonning ekvivalent nutqi vazifasini o‘taydi. Shubxa tabiat bilan bir tilda gaplashish orqali o‘zining ijtimoiy yolg‘izligini yengib o‘tadi. Yozuvchi inson nutqi o‘z qolgan joyda qalb va tabiat muloqotini birinchi planga olib chiqishi asarning badiiy qiymatini ta‘minlagan asosiy omildir. Shubxa obrazi jahon adabiyotida inson qadri va sadoqatining eng go‘zal timsollaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rabindranat Tagor “Shubxa”. – Toshkent – 2024.
2. Dilmurod Quronov “Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari”. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 142.
3. Izzat Sulton “Adabiyot nazariyasi asoslari”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
4. E. G‘oziyev “Umumiy psixologiya”. – Toshkent “Universitet” – 2002.
5. <https://opentran.net/uz/ingliz-ozbek-tarjima/protagonist.html>
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Iyerarxiya>
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Obraz>
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Foydalanuvchi:Samandar_Xodjaev/Empatiya

⁸¹ E. G‘oziyev “Umumiy psixologiya”. – Toshkent “Universitet” – 2002. – B. 129.